

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti rektori
X.B. Yunusov



2024-yil "02" 08

**BUXGALTERIYA HISOB XALQARO AMALIYOTI VA
BOSHQARUVI**

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Mutaxassislik:	70410201	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand-2024

Fan/modul kodi BHXAB2206		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 6	
Fan modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi	90		90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarda bugungi globallashtirish sharoitida biznes operatsiyalarining xalqaro jihatlari, xalqaro buxgalteriya hisobini rivojlantirish borasidagi iqtisodiy va siyosiy g'oyalar, xalqaro buxgalteriya hisobi reglamenti bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – magistrantlarga dunyodagi milliy buxgalteriya tizimlarini xilma-xilligini, yillik moliyaviy hisobotlar tuzish, xalqaro moliyaviy hamjamiyat, xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini, dunyo mamlakatlarida moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining qo'llanilishi va hisobni yuritilishini o'rgatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Xalqaro buxgalteriya hisobiga kirish</p> <p>Xalqaro hisob-kitob. Ko'p millatli korporasiya evolyutsiyasi. Xorijiy mijozlarga savdo valyuta xavfi. Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va xorijiy operatsiyalar bo'yicha moliyaviy hisobot. Xalqaro daromad soliqlari va xalqaro Transfer narxlash. Xorijiy operatsiyalar samaradorligini baxolash.</p> <p>2-mavzu. Dunyo mamlakatlarida buxgalteriya hisobining xilma-xilligi</p> <p>Buxgalteriya hisobining xilma-xilligi dalillari va sabablari. Huquqiy tizim va soliqqa tortish. Moliyalashtirish provayderlari va inflyasiya. Buxgalteriya hisobining xilma-xilligi oqibatida yuzaga kelgan muammolar. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash. Moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligi. Moliyaviy hisobot tizimlarining sub'yektiv tasnifi.</p> <p>3-mavzu. Moliyaviy hisobotning xalqaro yaqinlashuvi</p> <p>Yaqinlashish ma'nosining tushunchalari. Moliyaviy hisobotning xalqaro yaqinlashishga qarshi dalillarni aniqlovchi hisobot standartlari. Asosiy</p>				

inflyatsiya ta'siri, o'sish va sotib olish qobiliyatining yo'qolishi. Narx o'zgarishlarini hisobga olish usullari. Joriy xarajatlar hisobi. Xalqaro darajadagi inflyatsiya hisobi. Giperinflyatsiya sharoitida xorijiy valyutadagi moliyaviy hisobotlarning transformatsiyasi. Biznes birlashuvi va konsolidasiyalangan moliyaviy hisobotlar.

10-mavzu. Xalqaro moliyaviy hisobotlarning tahlili

Xalqaro moliyaviy hisobot, shakllari, unsurlari, unga qo'yiladigan asosiy talablar. Moliyaviy hisobot tahlili. Moliyaviy tahlil sabablari. Xorijiy portfel investisiya hisobining tahlili. Xorijiy moliyaviy hisobotlarni tahlil salohiyati muammolari.

11-mavzu. Xalqaro soliqqa tortish

Xalqaro soliqqa tortish mohiyati, tamoyillari, soliqqa tortish elementlari. Xalqaro soliqqa tortish amaliyoti, o'ziga xos xususiyatlari. Investitsiyalar bo'yicha qarorlar qabul qilish. Biznesning huquqiy shakli, moliyalashtirish usuli. Soliq turlari va soliq stavkalari.

12-mavzu. Xalqaro transfert narxlash

Transfert narx tushunchasi, mohiyati, qo'llanish sohasi, farqli xususiyatlari. Transfert narxlash usullari. Xalqaro transfert narxlashning maqsad va vazifalari. Baxolash va xarajatlarni minimallashtirish. Boshqa xarajatlarni minimallashtirish maqsadlari.

13-mavzu. Ko'p millatli korporatsiyalarda strategik hisob masalalari

Strategik hisob tushunchasi, mohiyati, ahamiyati, turlari, qo'llanish sohasi. Strategiyani shakllantirish. Kapital budjetlashtirish texnikasi. Ko'p millatli kapital budjetlashtirish. Boshqaruv nazorati va operatsion budjet. Tashqi operatsiyalar faoliyatini baxolash.

14-mavzu. Qiyosiy xalqaro audit va korporativ boshqaruv

Xalqaro audit va korporativ boshqaruv. Tashqi auditda xalqaro xilma-xillik. Auditning maqsadi va auditorlik muhitlari. Auditorlar va auditorlik firmalarini tartibga solish. Auditorlik hisobotlari. Auditorlik standartlarini xalqaro uyg'unlashtirish. Etika va xalqaro audit. Kasb etikasining yanada kommunikativ ko'rinishi. Qo'shimcha xalqaro auditorlik masalalari. Auditorlik javobgarligi va auditorlik javobgarligini cheklash. Auditor mustaqilligi va auditorlik komitetlari. Ichki audit.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov, katta o'qituvchi U.T.Eshmuradovlar tomonidan 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun "Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

T A Q R I Z

Iqtisodiyotni isloh qilish va mamlakatni modernizasiyalashtirish hamda jamiyatni demokratlashtirish talablaridan kelib chiqib iqtisodiy fanlar o'quv dasturlarini yangilash davr talabi bo'lib qolmoqda. "Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fani bo'yicha fan dasturi 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada tanlov fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun 40 soat ma'ruza, 50 soat amaliy dars va 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fan dasturida keltirilgan mavzular hozirgi kunda buxgalteriya hisobi va hisobotining xalqaro standartlariga transformatsiya qilinishi, uning rivojlanish tendensiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va ustuvor vazifalari masalalarini qamraydi hamda talabalarda buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi bo'yicha nazariy bilimlar chuqurlashtirish hamda ularda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan olganda, "Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fanini chuqur o'rganish taqozo etiladi.


Tayyorlangan fan dasturi 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

"Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fani dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi. Fan dasturi o'z ichiga 15 ta mavzuni qamrab olib, fan dasturida keltirilgan mavzular talabalarda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish bo'yicha ko'nikma va malakalarini hosil qilishda yordam berib, shu orqali buxgalteriya hisobi bo'yicha professional xizmatlarni ko'rsatish uchun zamin yaratadi.

Umuman olganda mazkur fan dasturi qo'yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo'lib, shu dastur asosida 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi magistrantlarini o'qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

S.N.Toshnazarov



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori A.I. Alikulov, katta o'qituvchi U.T. Eshmuradovlar tomonidan 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun "Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fanidan tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ


Bugungi globallashuv sharoitida biznes operatsiyalarining xalqaro jihatları, xalqaro buxgalteriya hisobini rivojlantirish borasidagi iqtisodiy va siyosiy g'oyalar, xalqaro buxgalteriya hisobi reglamenti bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish, dunyodagi milliy buxgalteriya tizimlarining xilma-xilligini, yillik moliyaviy hisobotlarni tuzish, xalqaro moliyaviy hamjamiyat, xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi va moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining qo'llanilishi va hisobni yuritilishi bo'yicha amaliy bilimlarni shakllantirishga ko'mak beradi.

"Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fani bo'yicha fan dasturi 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada tanlov fanlar blokidan o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun 40 soat ma'ruza, 50 soat amaliy dars va 90 soat mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan.

"Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fani dasturini mazmuni shuni ko'rsatadiki, fan dasturini tayyorlashda fanni o'rganish ketma-ketligiga rioya qilingan holda tartib bilan tuzilib, shu fanni o'rganish ketma-ketligiga mos keladi. Fan dasturi o'z ichiga 15 ta mavzuni qamrab olib, "Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fan dasturida keltirilgan mavzular hozirgi kunda buxgalteriya hisobi va hisobotning xalqaro standartlariga transformatsiya qilinishi, uning rivojlanish tendensiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari va ustuvor vazifalari masalalarini qamraydi hamda talabalarda buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi bo'yicha nazariy bilimlar chuqurlashtirish hamda ularda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Umuman olganda, "Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyoti va boshqaruvi" fani bo'yicha magistrantlar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan, fan dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, undan 70410201-Buxgalteriya hisobi mutaxassisligi talabalarini o'qitishda fan dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi
va statistika" kafedrası mudiri,
i.f.b.f.d. (PhD), dotsent



M.Mardonov

uyg'unlashtirish muhokama harakatlari, IASC tomonidan buxgalteriya hisobini belgilashda qo'llaniladigan prinsiplarga asoslangan yondashuvlar IASC. xalqaro miqyosda birinchi marta qabul qilinishi bilan bog'liq standartlarini muhokama qilish. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq moliyaviy hisobotlarni taqdim etish. "Anglo-sakson" hisobining ma'nosi.

4-mavzu. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari

Xalqaro buxgalteriya standartlariga muvofiqligi. Moliyaviy hisobotlarning asosiy maqsadi va asosiy taxminlari. Moliyaviy hisobotlarning sifatli xususiyatlari. Moliyaviy hisobotlarning elementlari. Kapitalni saqlash tushunchalari. MHXSning konseptual asoslari. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash.

5-mavzu. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari

Joriy aktivlar va majburiyatlar. Shartli majburiyatlar va shartli aktivlar. Miqdor majburiyatlar va qoidalari, ogir shartnoma. Qimmatli qog'ozlar - muqim ulushli to'lov operatsiyalari. Pul mablag'lari - muqim ulushli to'lov operatsiyalari. Tanlov-hisob-kitob ulushli to'lov operatsiyalari. Daromad solig'i, soliq qonunlari va stavkalari.

6-mavzu. Qiyosiy buxgalteriya hisobi

Xitoy Xalq Respublikasi buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti. Germaniya buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti. Yaponiya buxgalteriya hisobi buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti. Meksika buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti. Birlashgan Qirollik buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti.

7-mavzu. Xorijiy valyuta operatsiyalari va xedjirlash valyuta riski hisobi

Valyuta operatsiyalari. Valyuta bozorlari va valyuta kurslari mexanizmlari. Valyuta kurslari hisobi. Xedjirlash mohiyati, ahamiyati. Spot va forvard kurslari hisobi va opsiyon shartnomalari. Chet el valyutasidagi operatsiyalar hisobi.

8-mavzu. Xorijiy valyutadagi moliyaviy hisobotlar transformatsiyasi

Moliyaviy hisobot mohiyati, shakllari, unsurlari, unga qo'yiladigan asosiy talablar. Transformatsiya tushunchasi, mohiyati va ahamiyati. Moliyaviy hisobot transformatsiyasi. Balans transformatsiyasi. Transformatsiya usullari.

9-mavzu. Moliyaviy hisobotlarning boshqa masalalari

Narxlarini o'zgarishi hisobi (inflyatsiya hisobi). Moliyaviy hisobotlarga

<p>30. Xalqaro korporativ ijtimoiy hisobot</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p>III.II. Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan</p> <p>IV. Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan</p> <p>V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Xalqaro buxgalteriya hisobiga kirish 2. Dunyo mamlakatlarida buxgalteriya hisobining xilma-xilligi 3. Moliyaviy hisobotning xalqaro yaqinlashuvi 4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari 5. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari 6. Qiyosiy buxgalteriya hisobi 7. Xorijiy valyuta operatsiyalari va xedjirlash valyuta riski hisobi 8. Xorijiy valyutadagi moliyaviy hisobotlar transformatsiyasi 9. Moliyaviy hisobotlarning boshqa masalalari 10. Xalqaro moliyaviy hisobotlarning tahlili 11. Xalqaro soliqqa tortish 12. Xalqaro transfert narxlash 13. Ko'p millatli korporatsiyalarda strategik hisob masalalari 14. Qiyosiy xalqaro audit va korporativ boshqaruv 15. Xalqaro korporativ ijtimoiy hisobot 16. Xitoy Xalq Respublikasi buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti 17. Germaniya buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti 18. Yaponiya buxgalteriya hisobi buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti 19. Meksika buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti 20. Birlashgan Qirollik buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti. <p>Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.</p>	<p>3. VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ko'p millatli operatsiyalarga nisbatan moliyaviy hisob va strategik masalalar, xalqaro moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish haqida <i>tasavvurga ega</i>
---	--

<p>bo'lishi; (bilim)</p> <ul style="list-style-type: none"> • turli milliy kontekstlarda buxgalteriya hisobining tabiati va rollaridagi qiyosiy farqlar va bu farqlarning sabablari, soliqqa tortish tartibi, birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar, guruhlashtirilgan moliyaviy hisobotlarning xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) • xalqaro buxgalteriya maydonda so'nggi yirik ishlanmalar uchun rasionalizatorlik, xorijiy valyuta hamda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka) 	<p>4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish; • muhokamalarda ishtirok etish; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni yechish; • so'rov o'tkazish. <p>5. VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p> <p>6. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Karimov A., Ibragimov A., Rizaev N. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari. Darslik. -Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2020 yil. 2. Tashnazarov. S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. -Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2019 yil. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. <i>Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон</i>. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024 yil. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. 3. Norbekov D., To'rayev A., Raxmonov Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. -Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2018 yil 4. Xolbekov R.O. Xalqaro buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Inovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2021 yil. 5. Ergasheva SH, Ibragimov A, Rizaev N. Moliyaviy hisobotning xalqaro
--	---

	standartlari. O'quv qo'llanma. - Toshkent: "IQTISODIYOT", 2019 yil.
	6. Elliott B. and J. Elliott Financial Reporting and Accounting, (18th edition), Prentice Hall, 2017.
	Axborot manbaalari
	1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
	2. www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
	3. www.norma.uz – axborot-huquqiy portali
	4. www.ach.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining sayti
7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12"-sonli buyoni bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: A.I. Alikulov – SamDVMCHBU, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisodiyot fanlari doktori U.T. Eshmuradov – SamDVMChBU, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası katta o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: 1. Toshnazarov S.N. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor 2. Mardonov M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrası mudiri i.f.b.f.d. (PhD), dotsent

15-mavzu. Xalqaro korporativ ijtimoiy hisobot
Korporativ ijtimoiy hisobot (KIH). Kompaniyalarning KIH amaliyotini tushuntirish uchun ishlatiladigan nazariyalar. Tashqi hisobotning hozirgi xalqaro tendensiyasini tavsifi. KIH analiyotlarini tartibga solish uchun xalqaro darajada qo'yilgan qadamlar.
III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1. Xalqaro buxgalteriya hisobiga kirish
2. Xalqaro hisob-kitob.
3. Xorijiy mijozlarga savdo valyuta xavfi.
4. Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar va xorijiy operatsiyalar bo'yicha moliyaviy hisobot.
5. Xalqaro daromad soliqlari va xalqaro Transfer narxlash.
6. Xorijiy operatsiyalar samaradorligini baxolash.
7. Dunyo mamlakatlarida buxgalteriya hisobining xilma-xilligi
8. Moliyaviy hisobotning xalqaro yaqinlashuvi
9. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq moliyaviy hisobotlarni taqdim etish
10. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
11. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari
12. Xitoy Xalq Respublikasi buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti.
13. Germaniya buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti.
14. Yaponiya buxgalteriya hisobi buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti.
15. AQSH buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti.
16. Birlashgan Qirollik buxgalteriya hisobi tamoyillari va amaliyoti.
17. Xorijiy valyuta operatsiyalari va xedjirlash valyuta riski hisobi
18. Spot va forvard kurslari hisobi va opsiya shartnomalari
19. Xorijiy valyutadagi moliyaviy hisobotlar transformatsiyasi
20. Moliyaviy hisobotlarning boshqa masalalari
21. Xalqaro moliyaviy hisobotlarning tahlili
22. Xalqaro soliqqa tortish
23. Xalqaro transfert narxlash
24. Ko'p millatli korporatsiyalarda strategik hisob masalalari
25. Qiyosiy xalqaro audit va korporativ boshqaruv
26. Tashqi auditda xalqaro xilma-xillik.
27. Auditorlik standartlarini xalqaro uyg'unlashtirish.
28. Qo'shimcha xalqaro auditorlik masalalari.
29. Auditor mustaqilligi va auditorlik komitetlari.